2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK 378.147:78

Rashidov Sardor Alisher o'g'li,
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

MUSIQA TA'LIMIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTOZLIK VA MENTORLIKKA ASOSLANGAN MODELI

Annotatsiya. Maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammosi ustozlik (tyutorlik) va mentorlikka asoslangan model orqali yoritiladi. An'anaviy auditoriya mashg'ulotlari bilan real pedagogik-ijrochilik faoliyat o'rtasidagi uzilish muammosi tahlil qilinib, uni bartaraf etishga qaratilgan uch bloklik (institutsional-tashkiliy, kasbiy-mazmuniy, shaxsiy-rivojlantiruvchi) va to'rt bosqichli (adaptatsiya, integratsiya, mustaqillashtirish, ijodiy-innovatsion) model taklif etiladi. Modelning har bir komponenti bo'yicha baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari taklif etilayotgan modelning talabalarning kasbiy kompetentligi, mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorligi va ijrochilik mahoratini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, mentorlik, ustozlik (tyutorlik), musiqa ta'limi, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik model, amaliy tayyorgarlik, baholash mezonlari.

МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ НА ОСНОВЕ НАСТАВНИЧЕСТВА И МЕНТОРСТВА

Аннотация. В статье рассматривается проблема совершенствования профессиональной подготовки будущих учителей музыки в системе высшего педагогического образования посредством модели, основанной на тьюторстве и наставничестве. Проанализирован разрыв между традиционными аудиторными занятиями и реальной педагогическо-исполнительской деятельностью, для устранения которого предложена модель, включающая три блока (организационно-институциональный, профессионально-содержательный, личностно-развивающий) и четыре этапа (адаптация, интеграция, автономизация, творческо-инновационный этап). Для каждого компонента модели разработаны критерии и показатели оценки. Результаты исследования показывают, что предложенная модель способствует повышению профессиональной компетентности, готовности к самостоятельной педагогической деятельности и исполнительского мастерства студентов.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, наставничество, тьюторство, музыкальное образование, будущий учитель, педагогическая модель, практическая подготовка, критерии оценки.

A MODEL FOR IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE MUSIC TEACHERS BASED ON MENTORSHIP AND PROFESSIONAL GUIDANCE

Abstract. This article examines the problem of improving the professional training of future music teachers in the system of higher pedagogical education through a model based on mentorship and tutoring. The study analyzes the gap between traditional classroom instruction and authentic pedagogical and performance-oriented activities and proposes a three-block model comprising institutional-organizational, professional-content, and personal-development components, as well as a four-stage framework encompassing adaptation, integration, independent practice, and creative-innovative development. Assessment criteria and indicators have been developed for each component of the model. The findings demonstrate that the proposed model contributes to enhancing students' professional competence, readiness for independent pedagogical practice, and performance skills.

Keywords: professional training, mentorship, tutoring, music education, future teacher, pedagogical model, practical training, assessment criteria.

Kirish. Oliy pedagogik ta'lim tizimida musiqa yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash o'ziga xos murakkabliklarga ega. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi bir vaqtning o'zida ijrochi-musiqachi va metodist-pedagog sifatida shakllanishi lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ma'ruza va seminar mashg'ulotlari nazariy bilimlarni egallash uchun muayyan imkoniyat yaratadi, biroq talabaning real sinf yoki to'garak sharoitida mustaqil pedagogik-ijrochilik faoliyatini tashkil etishga tayyorligini har doim ham to'liq ta'minlay olmaydi. Ushbu uzilishni bartaraf etishda tajribali mutaxassis — mentor yoki ustoz rahbarligida bosqichma-bosqich tashkil etiladigan amaliy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ustozlik va mentorlik asosida takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy oliy pedagogik ta'limning muhim vazifalaridan biri nazariy bilimlarni puxta egallagan, kasbiy kompetensiyalarga ega va amaliy faoliyatga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Musiqa ta'limida bu vazifa yanada murakkab tus oladi. Chunki musiqa o'qituvchisi pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ijrochi-solist, ansambl va xor rahbari, konsertmeyster, metodist hamda tarbiyachi kabi turli funksiyalarni bajaradi. Demak, uning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmay, amaliy-ijrochilik va pedagogik faoliyatning o'zaro uyg'unligini ham ta'minlashi zarur.

Muammoning dolzarbligi zamonaviy ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablarning ortib borayotgani bilan ham bog'liq. Amaliyotda ayrim bitiruvchilar mehnat faoliyatining dastlabki bosqichlarida sinfni boshqarish, o'quvchilar bilan individual ishlash, repertuar tanlash, mashg'ulotlarni rejalashtirish va ota-onalar bilan samarali muloqot qilish kabi masalalarda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunday holat, avvalo, oliy ta'lim jarayonida nazariy va amaliy tayyorgarlik o'rtasidagi uzviylikning yetarli darajada ta'minlanmaganligi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, mentorlikka asoslangan amaliy tayyorgarlik talabaning universitetda olgan bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda qo'llashiga, kasbiy tajriba orttirishiga va mustaqil faoliyatga bosqichma-bosqich o'tishiga yordam beruvchi samarali mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Xorijiy tajriba ham o'qituvchilarni tayyorlash va kasbiy moslashtirish jarayonida mentorlik dasturlarining ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatadi. Bunday yondashuv yosh mutaxassisga kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichlarida metodik, tashkiliy va psixologik jihatdan ko'mak berish, shuningdek, uning kasbiy rivojlanishini muntazam kuzatib borish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, mentorlikning samaradorligi uning aniq maqsad, vazifa, bosqich va baholash mezonlari asosida tashkil etilishiga bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi — bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan, ustozlik va mentorlik tamoyillariga asoslangan amaliy model hamda uning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

ustozlik va mentorlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish;

mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribani tahlil qilish;

mentorlik modelining tarkibiy qismlari va bosqichlarini ishlab chiqish;

modelni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini asoslash.

Mavzuning nazariy asoslari. Ilmiy adabiyotlarda "ustozlik", "tyutorlik" va "mentorlik" tushunchalari ayrim hollarda bir-biriga yaqin ma'nolarda qo'llanadi. Biroq ular o'rtasida muayyan funksional farqlar mavjud. Tyutorlik, asosan, talabaning individual ta'lim yo'nalishini belgilash, o'quv faoliyatini rejalashtirish va unga ta'limiy hamrohlik qilish bilan bog'liq bo'lsa, mentorlik tajribali mutaxassisning kamroq tajribaga ega shaxsga uzoq muddatli, tizimli va ishonchga asoslangan kasbiy hamrohligini anglatadi. Musiqa ta'limida mazkur ikki yondashuv o'zaro uyg'unlashishi mumkin. Chunki mentor talabaning nafaqat metodik faoliyatiga yo'l-yo'riq beradi, balki o'zining ijrochilik va pedagogik faoliyati orqali bevosita namuna ham ko'rsatadi.

Mentorlik nazariyasining shakllanishida K. Kramning mentorlikni kasbiy va psixologik-ijtimoiy funksiyalar orqali izohlovchi modeli, shuningdek, L. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, talaba mustaqil ravishda bajara olmaydigan, biroq tajribali mutaxassis ko'magida uddalay oladigan faoliyat orqali

yangi kompetensiyalarni samaraliroq egallaydi. L. Shulmanning pedagogik-mazmuniy bilim konsepsiyasi esa o‘qituvchi uchun fan bilimining o‘zi yetarli emasligini, mazkur bilimlarni o‘quvchiga tushunarli va samarali tarzda yetkazish mahorati ham zarurligini asoslaydi.

Sharq pedagogik tafakkurida qadimdan shakllangan ustoz-shogirdlik an’anasi ham ushbu nazariy qarashlar bilan mazmunan uyg‘unlashadi. Unda bilim va mahoratning shaxsiy namuna, kuzatish, bevosita muloqot va amaliy faoliyat orqali uzatilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu jihat musiqa ta’limi uchun ayniqsa muhim, chunki ijrochilik mahorati, sahna madaniyati, repertuar bilan ishlash va pedagogik vaziyatni boshqarish kabi ko‘nikmalarni faqat nazariy tushuntirish orqali to‘liq shakllantirish qiyin.

M. Noulzning andragogika nazariyasi ham mentorlik jarayonini tashkil etishda muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv kattalar ta’limida mavjud tajribaga tayanish, mustaqillikka intilish va real muammolar asosida o‘rganishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu tamoyillar talabalarning kasbiy tayyorgarligida amaliy topshiriqlar, muammoli pedagogik vaziyatlar va individual faoliyatni tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

D. Shyonning “amaliyotda mulohaza yurituvchi mutaxassis” konsepsiyasi esa bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faoliyatini amaliyot davomida va undan keyin tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Mentorlik jarayonida talaba bajarilgan mashg‘ulotni tahlil qilishi, yuzaga kelgan muammolar sababini aniqlashi va keyingi faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini belgilashi mumkin. Shu jihatdan mentorlik faqat tayyor kasbiy tajribani uzatish vositasi emas, balki talabaning mustaqil fikrlashi, refleksiyasi va o‘z-o‘zini rivojlantirishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda o‘qituvchilarni tayyorlash va kasbiy moslashtirish tizimlarida mentorlik dasturlari ko‘pincha institutsional darajada yo‘lga qo‘yilgan. Tajribali pedagoglar mentorlik faoliyatiga maxsus tayyorlanadi, ularning vazifalari va mas’uliyati belgilanadi hamda yosh mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi muntazam kuzatib boriladi. Mahalliy amaliyotda esa amaliyot rahbarligi ayrim hollarda rasmiy topshiriq doirasida qolib, mentorlik faoliyati maxsus tayyorgarlik va rag‘batlantirish mexanizmlariga yetarlicha bog‘lanmagan. Natijada mentorlikning mazmuni va sifati turlicha namoyon bo‘lishi mumkin.

Shu sababli xorijiy tajribada shakllangan mentorlikning institutsional mexanizmlarini mahalliy ta’lim tizimining ehtiyojlari va musiqa pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir. Bunda mentorlikni faqat amaliyot davridagi nazorat shakli sifatida emas, balki talabaning kasbiy shakllanishini bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlaydigan, ijrochilik va pedagogik kompetensiyalarni birlashtiradigan tizimli jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy-nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyotni tashkil

etish tajribasini o‘rganish, shuningdek, olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish, qiyoslash va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan mentorlik modelining mazmuni, tarkibiy qismlari va amalga oshirish bosqichlarini belgilash imkoniyati yaratildi.

Taklif etilayotgan modelning tarkibiy tuzilishi. Tadqiqot natijasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ustozlik va mentorlik asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan model ishlab chiqildi. Model o‘zaro bog‘liq uchta asosiy blok — institutsional-tashkiliy, kasbiy-mazmuniy va shaxsiy-rivojlantiruvchi bloklardan tashkil topadi.

Institutsional-tashkiliy blok universitet va amaliyot bazalari, jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari hamda madaniyat markazlari o‘rtasidagi hamkorlikni tizimli tashkil etishga qaratiladi. Ushbu blokning muhim jihati “ikki mentorli” tizimni joriy etishdan iborat bo‘lib, bunda talaba bir vaqtning o‘zida universitetdagi ilmiy-metodik rahbar va amaliyot bazasidagi tajribali ustoz-pedagog ko‘magida faoliyat olib boradi. Shu asosda amaliyot bazalari bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mentorlarni tanlash va ularni qisqa muddatli tayyorgarlikdan o‘tkazish, shuningdek, talaba va mentor o‘rtasidagi hamkorlikni aniq vazifalar asosida tashkil etish mexanizmlari belgilanadi.

Kasbiy-mazmuniy blok bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining nazariy-metodik bilimlari, cholg‘u yoki vokal ijrochilik mahorati, pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish ko‘nikmalarini izchil rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu yo‘nalishda individual repertuar rejasini ishlab chiqish, ochiq darslar va mahorat darslarida ishtirok etish, zamonaviy musiqiy-pedagogik dastur va raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur blokning asosiy vazifasi talabaning universitetda egallagan nazariy bilimlarini real pedagogik va ijrochilik faoliyati bilan bog‘lashdan iborat.

Shaxsiy-rivojlantiruvchi blok talabaning kasbiy refleksiyasi, o‘z faoliyatini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalari, kasbiy portfolioni shakllantirish hamda pedagogik-ijodiy o‘zligini anglashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda haftalik refleksiya kundaligini yuritish, mentor bilan muntazam individual suhbat va fikr-mulohaza sessiyalarini tashkil etish, semestr yakunida kasbiy portfolioni tahlil qilish va taqdim etish kabi faoliyat turlaridan foydalaniladi. Natijada talaba o‘zining kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlash, kasbiy maqsadlarini belgilash hamda keyingi faoliyatini mustaqil rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mazkur uch blok bir-biridan alohida emas, balki yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi. Institutsional-tashkiliy sharoit amaliy faoliyat uchun zarur muhitni yaratadi, kasbiy-mazmuniy blok tegishli bilim va ko‘nikmalarni rivojlantiradi, shaxsiy-rivojlantiruvchi blok esa talabaning o‘z faoliyatini anglash, tahlil qilish va

takomillashtirishini ta'minlaydi. Shu jihatdan modelning samaradorligi uning barcha bloklari o'rtasidagi uzviy hamkorlikka bog'liq.

Modelni amalga oshirish bosqichlari. Taklif etilayotgan model to'rt bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi — adaptatsiya bosqichida talaba amaliyot bazasining faoliyat muhiti, pedagogik jamoa va mentorning ish uslubi bilan tanishadi, mashg'ulotlarni kuzatadi hamda pedagogik faoliyatning asosiy jihatlarini o'rganadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi talabani real ta'lim muhitiga moslashtirish va unda kasbiy kuzatuvchanlikni shakllantirishdan iborat.

Ikkinchi — integratsiya bosqichida talaba mentor rahbarligi ostida alohida pedagogik va ijrochilik topshiriqlarini bajaradi. Jumladan, darsning ayrim qismlarini mustaqil tashkil etish, repertuar tanlash va tayyorlash, o'quvchilar bilan individual ishlash hamda kichik ijodiy topshiriqlarni amalga oshirishga jalb etiladi. Bu bosqichda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashga ustuvor ahamiyat beriladi.

Uchinchi — mustaqillashtirish bosqichida talaba mentorning umumiy tavsiyalari va maslahatlari asosida, biroq asosan mustaqil ravishda to'liq mashg'ulot, dars yoki ijodiy tadbirni rejalashtiradi va amalga oshiradi. Mentor bu jarayonda bevosita boshqaruvchi emas, balki maslahat beruvchi va tahlil qiluvchi hamroh vazifasini bajaradi. Talabaning faoliyati natijalarini tahlil qilish va konstruktiv fikr-mulohaza berish uning kasbiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

To'rtinchi — ijodiy-innovatsion bosqichda talaba o'zining individual pedagogik va ijrochilik uslubini shakllantirishga intiladi, yangi metod va texnologiyalarni sinab ko'radi hamda o'z tajribasini mustaqil ravishda tahlil qiladi. Mazkur bosqichda u quyi kurs talabalari yoki yosh o'quvchilar bilan ishlashda ustozlik funksiyasini bajarishga ham jalb etilishi mumkin. Shu tariqa mentorlik modeli nafaqat tajribali pedagogdan talabaga bilim va tajriba uzatishni, balki talabaning kelgusida o'zi ham boshqalarning kasbiy rivojlanishiga ko'maklashadigan mutaxassis sifatida shakllanishini nazarda tutadi.

Umuman, modelning uchta tarkibiy bloki va to'rtta amalga oshirish bosqichi o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, talabaning kuzatuvchi va yo'naltiriluvchi ishtirokchidan mustaqil hamda ijodkor pedagog-ijrochiga bosqichma-bosqich aylanishini ta'minlashga qaratilgan. Modelning asosiy natijasi bo'lajak musiqa o'qituvchisida nazariy bilim, amaliy ko'nikma, ijrochilik mahorati, kasbiy refleksiya va pedagogik mustaqillikning yaxlit holda shakllanishi bilan belgilanadi.

Modelning samaradorligini kuzatish uchun har bir blok bo'yicha quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

1-jadval

Komponent	Asosiy ko'rsatkich	Baholash vositasi
Kognitiv	Metodik va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olishi	Test, pedagogik topshiriqlar tahlili

Komponent	Asosiy ko‘rsatkich	Baholash vositasi
Faoliyat-ijrochilik	Mustaqil dars/tadbir tashkil eta olish, ijrochilik sifati	Mentor va o‘zaro baholash varaqasi
Shaxsiy-refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish, kasbiy o‘sish dinamikasi	Kasbiy portfolio, kundalik-refleksiya

Pedagogik shart-sharoitlar. Taklif etilgan modelning samarali ishlashi bir qator pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlarning ta’minlanishini talab etadi. Avvalo, mentor sifatida jalb etiladigan pedagoglar ijrochilik va metodik jihatdan yetarli kompetensiyaga ega bo‘lishi, shuningdek, ularning mentorlik faoliyatini takomillashtirish uchun muntazam uslubiy yordam ko‘rsatilishi lozim. Talaba va mentor o‘rtasidagi hamkorlik o‘zaro hurmat, ishonch va ixtiyoriylik tamoyillari asosida tashkil etilib, buyruqbozlikka yo‘l qo‘yilmasligi muhim. Shuningdek, amaliyotning har bir bosqichi uchun aniq va o‘lchanadigan natijalar, ya’ni shakllantirilishi kutilayotgan kasbiy ko‘nikmalar belgilanishi zarur. Talabaning faoliyati esa faqat yakuniy natija asosida emas, balki amaliyot davomida shakllantirilgan portfolio, mentor kuzatuvlari va refleksiv tahlil natijalari asosida kompleks baholanishi maqsadga muvofiq.

Natijalar va muhokama. Taklif etilgan modelning tahlili mentorlik jarayonini bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etish talabalarda nafaqat ijrochilik mahoratini, balki mustaqil pedagogik qaror qabul qilish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va o‘z faoliyatini tanqidiy baholash kabi muhim kasbiy kompetensiyalarni ham rivojlantirishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, “ikki mentorli” yondashuv — universitetdagi ilmiy-metodik rahbar va amaliyot bazasidagi tajribali pedagogning hamkorligi — nazariy bilimlar bilan real pedagogik tajriba o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytiradi.

Modelning an’anaviy amaliyot tizimidan asosiy farqi shundaki, unda kuzatuv, fikr-mulohaza va baholash faqat yakuniy bosqichga emas, balki butun amaliyot jarayoniga integratsiyalashadi. Bu esa talabaning xatolarini o‘z vaqtida aniqlash, ularni tuzatish va kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Shaxsiy-rivojlantiruvchi blokning alohida tarkibiy qism sifatida ajratilishi esa talabaning refleksivlik, mustaqillik va kasbiy o‘zligini anglash kabi sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, modelni joriy etish muayyan tashkiliy va resurs cheklovlarini ham yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan, mentorlarni tayyorlash va rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha vaqt va resurslar talab etiladi, mentorlarning kasbiy tayyorgarligi hamda motivatsiyasidagi farqlar esa model natijalarining bir xil bo‘lmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois modelni mahalliy sharoitga moslashtirish, dastlab tajriba-sinov tariqasida joriy etish va natijalar asosida takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta’lim muassasalari uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

musiqa yo‘nalishlari kafedralari huzurida “Yosh mentor maktabi”ni tashkil etish va tajribali pedagoglarni mentorlik metodikasi bo‘yicha qisqa muddatli tayyorgarlikdan o‘tkazish; har bir talaba uchun amaliyot davriga mo‘ljallangan individual rivojlanish rejasini (“yo‘l xaritasi”) ishlab chiqish va uni mentor bilan hamkorlikda muntazam yangilab borish; talaba va mentorlarning faoliyatini rag‘batlantirish uchun ball-reyting yoki sertifikatlashtirish mexanizmlarini joriy etish; amaliyot yakunida talabalar, mentorlar va metodistlar ishtirokida refleksiv seminar tashkil etib, erishilgan natijalar, mavjud muammolar va keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini muhokama qilish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ustozlik va mentorlik tamoyillariga asoslangan, institutsional-tashkiliy, kasbiy-mazmuniy hamda shaxsiy-rivojlantiruvchi bloklarni o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi model orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Taklif etilgan to‘rt bosqichli tizim talabaning kuzatuvdan boshlab bosqichma-bosqich mustaqil va ijodiy pedagogik faoliyatga o‘tishini ta’minlaydi hamda amaliyot jarayonini izchil, nazorat qilinadigan va natijaga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Mazkur modelning muhim jihati universitet va amaliyot bazasi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, nazariy bilimlarni real pedagogik faoliyat bilan bog‘lash hamda talabaning kasbiy refleksiyasi va mustaqilligini rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, “ikki mentorli” yondashuv talabaning bir vaqtning o‘zida ilmiy-metodik va amaliy-pedagogik qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlab, uning kasbiy kompetensiyalarini kompleks shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, modelni amaliyotga joriy etishda mentorlarni maxsus tayyorlash, ularning faoliyatini metodik va moddiy jihatdan rag‘batlantirish, amaliyot bazalari bilan barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda talabaning rivojlanish dinamikasini muntazam baholab borish muhim ahamiyatga ega. Bu shartlarning ta’minlanishi mentorlik tizimining barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda taklif etilgan modelni turli oliy ta’lim muassasalari sharoitida tajriba-sinovdan o‘tkazish, uning samaradorligini mezon va indikatorlar asosida baholash hamda olingan natijalarni statistik jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bu esa modelning amaliy samaradorligini empirik jihatdan asoslash va uni musiqa ta’limi tizimida kengroq joriy etishning metodik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kram, K. E. Mentoring at Work: Developmental Relationships in Organizational Life. Glenview: Scott, Foresman, 1985.

2. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

3. Shulman, L. S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1987.

4. Lave, J., Wenger, E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. Cambridge: Cambridge University Press, 1991.

5. Namozova, D. T. Malakaviy amaliyot jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari.

6. Urinova, S. Sh. Musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati.

7. Sharipova, G. Musiqa o‘qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuari: o‘quv qo‘llanma.

8. Jo‘rayev, N. T., To‘rayev, R. M. va boshq. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mustaqil bilimlarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash // International journal of science and technology, 2025.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694